

## MAMLAKATIMIZDA QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSION FONDLARINING O'RNINI

### **N.Qo'chqorov**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

### **Q.Majidov**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

### **O.N.Xaitov**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali assistenti

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada qimmatli qog'ozlar bozori kapital bozorining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanib, bozorni rivojlantirish va ushbu faoliyatni samarali tashkil etish har bir mamlakat boshqaruvining muhim strategik yo'nalishlaridan biri ekanligi sir emas. Shunday ekan, qimmatli qog'ozlar bozorida yirik va har tomonlama samarali faoliyat olib boruvchi investitsion fond mavjudligi muhim o'rin egallaydi.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, innovatsiya faoliyati, qimmatli qog'ozlar, tashkiliy boshqarish, ijtimoiy sohalar, milliy iqtisodiyot, xo'jalik subyektlari, kapital, fond bozori, investitsiyalar, aholining shaxsiy jamg'armalari

Rivojlangan davlatlar amaliyotiga ko'ra, investitsiya fondlarining rivojlanishi qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishiga va shu asosda mamlakat iqtisodiy o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, mamlakatimizda investitsiya fondlari faoliyatini rivojlantirish maqsadida, 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotning real sektoriga bo'sh mablag'larni jalb qilish uchun korxonalar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni sotib olishni rag'batlantirish, xususan, xaridlarni daromad solig'idan ozod qilish vazifasi qo'yilgan edi. Bu, o'z navbatida, mamlakatimizda investitsiya fondlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish va qo'llab-quvvatlash zarurligini keltirib chiqardi.

Qimmatli qog'ozlar bozori kapital bozorining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanib, bozorni rivojlantirish va ushbu faoliyatni samarali tashkil etish har bir mamlakat boshqaruvining muhim strategik yo'nalishlaridan biri ekanligi sir emas. Shunday ekan, qimmatli qog'ozlar bozorida yirik va har tomonlama samarali faoliyat olib boruvchi investitsion fond mavjudligi muhim o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 25 avgustdagi "Investitsiya va pay fondlari to'g'risida"gi qonunida investitsion fondlar tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Investorlarning pul mablag'larini jalb etish va ularni investitsiya aktivlariga qo'yish qo'yish maqsadida aksiyalar chiqarishni amalga oshiruvchiyuridik shaxs – aksiyadrlk jamiyati investitsiya

fondidir»<sup>25</sup>.

O`zbekiston fond bozoriga moliyaviy resurslarni keng jalb qilish hamdaularni boshqarishda asosan quyidagi ikki turdagi fondlar mavjud: investitsiya fondlari (IF) va xususiylashtirish investitsiya fondlari (XIF). O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 25 sentabrdagi 410-qarorida investitsiya fondlari (IF) va xususiylashtirish investitsiya fondlarining ustav fondi 1600 mln.so`mni tashkil etishi lozimligi belgilab qo`yilgan.

Hozirda Qimmatli Qog`ozlar Markaziy depozitariy investitsiya fondlari tomonidan chiqarilgan va ularga tegishli bo`lgan qimmatli qog`ozlarga bo`lgan huquqlar hisobini yuritish bo`yicha Mutlaq funksiyalarni bajargan holda, 2ta xususiylashtirish investitsiya fondlari hamda 7ta investitsiya fondlariga xizmatko`rsatadi. Aksiyadorlar miqdori 2023 yil 1 aprel holatiga 49 710 nafarni (49673 jismoniy shaxslar va 37 yuridik shaxslar) tashkil etib, umumiy investitsion portfeli 7,32 mlrd.so`mga yetgan<sup>26</sup>.

Dunyo amaliyotida investitsion fondlar moliyaviy mablag`larni markazlashtirish va ulardan samarali foydalanishda keng qo`llanilayotgan moliyaviy institutsional institutining bir shakli bo`lib, ularning bir qancha turlari mavjud (1-jadval).


1-jadval Jahon mamlakatlari kesimida investitsion fondlarning turlari<sup>27</sup>

T/r	Davlatlar	Turlari
1	Amerika Qo`shma Shtatlari	boshqaruv kompaniyalari; o`zaro fondlar; nominal qiymatga ega sertifikatlar fondi; yopiq tipdagi investitsion kompaniyalar; investitsion trastlar (homiy vasiy); indeksli fondlar.
2	Rossiya	aksiyadorlik investitsiya fondlari; aylanmasida paylari chegaralangan fondlar; yopiq pay investitsiya fondlari; birjaviy pay investitsiya fondlari oralik pay investitsiya fondlari ochiq pay investitsiya fondlari
3	Qozog`iston	aksiyadorlik investitsiya fondi; ochiq pay investitsiya fondi; ko`chmas mulk aksiyadorlik investitsiya fondi; oralik pay investitsiya fondi; yopiq pay investitsiya fondi; oddiy shirkat yoki aksiyadorlik jamiyati shakliagi – Venchur fondi.
4	O`zbekiston	aksiyadorlik investitsiya fondi; ochiq pay investitsiya fondi; yopiq pay investitsiya fondi; venchur fondi; investitsiya kompaniyasi; boshqaruv kompaniyasi.

Investitsion fondlarni tashkil etishning turlarini tanlash individual ahamiyat kasb etib, ular faoliyat yuritayotgan mamlakatlarning milliy qonunchilik tizimiga hamda iqtisodiy integrallashish darajasiga ko`p jihatdan bog`liq bo`ladi.

Investitsiya fondlari yoki o'zaro fondlar o'z ishtirokchilariga ko'plab afzalliklarni beradi. Birinchidan, bo'sh turgan pul mablag'lari professionalning qo'lida to'planadi. Bu jamg'armaning barcha ishtirokchilarining yo'qotish xavfini sezilarli darajada pasaytiradi. Ikkinchidan, bo'sh turgan pul mablag'lari odatda faoliyatning bir necha turiga yo'naltirilganligi sababli, yo'qotish xavfi ishtirokchilarning har biri uchun kamayadi. Yana bir afzallik shundan iboratki – moliyaviy operatsiyalar narxining pasayishi, chunki fond ularning ko'p qismini amalga oshiradi.

Dunyo bo'yicha boshqaruvdagi aktivlarning qiymati jihatidan yirik investitsion fondlar – aktivlarni boshqarish kompaniyalari hisoblanib, ular asosan AQSh davlatida tashkil etilgan va faoliyat yuritadi (1-rasm).



1- rasm. Top-5 aktivlarni boshqaruvchi kompaniyalar (2023 yil 1 yanvarholatiga), trln.dollar

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, investitsion fondlar 2023 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, yuridik va jismoniy shaxslarning umumiy qiymati 30,9 trln. AQSh dollariga teng bo'lgan moliyaviy aktivlarini boshqarish huquqiga ega hisoblangan. Taqqoslash uchun, dunyo bo'yicha 2022 yildagi YaIM AQShda 25,1 trln AQSh dollari, Xitoyda 18,3 trln. AQSh dollari va Yevropa Ittifoqi davlatlarida 15,9 trln AQSh dollarini tashkil etgan.

Umuman olganda yuqorida o'rganilgan xorij tajribasidan kelib chiqqan holda respublikamizda investitsiya fondlarini tashkil etish va ular faoliyatini rivojlantirishda quyidagi jihatlarni inobatga olish muhim hisoblanadi:

- mamlakatimizda investitsiya fondlari sonining boshqa xorijiy mamlakatlarga nisbatan ozligi sababli ularning sonini oshirish hamda investitsiya fondlarini rivojlantirish maqsadida qimmatli qog'ozlar bozorini faoliyat mexanizmini yanada takomillashtirish lozim;
- investorlar o'z mablag'larini investitsiya fondlariga qo'yishlari uchun sarmoyalarni himoyalash mexanizmini yanada mukammallashtirish maqsadga muvofiq;
- mamlakatimiz aholisi (potensial xorijiy investorlar)ning investitsiya fondlariga bo'lgan ishonchini oshirish va umuman qimmatli qog'ozlar bozori haqidagi moliyaviy savodxonligini oshirish orqali kapital bozoriga bo'lgan ishonchini oshirish bo'yicha chora tadbirlarni ishlab chiqish muhim.

Fikrimizcha, biz tomonimizdan taqdim etilgan yuqoridagi fikr miulohazalar mamlakatimiz

qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish hamda investitsion fondlar faoliyatini takomillashtirishda o'z munosib hissasini qo'shadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son.
2. Qudratov Sh.G'. O'zbekiston Respublikasi fond bozori va uning rivojlanishiga ta'sir qilayotgan asosiy muammolar. Mejdunarodniy nauchniy jurnal № 2 (100), chast 2 «Nauchniy impuls» sentyabr, 2022. S. 688.
3. Sultonov Sh.N. O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirish yo'llari. Iqtisodiyot va ta'lim / 2022-yil 5-son.
4. Nurmuhamedov A.A. Nurmuhamedova B.I. Fond bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligi. "Skienke and Edukation" Skientifik Journal. / ISSN 2181-0842 March 2023 / Volume 4 Issue 3